

DEFOLIANTNI SURUNKALI TA'SIRIDA AYRSIMON BEZNING MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI

Kiyomov Ixtiyor Ergashovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchi

Samarqand, O'zbekiston

Ilmiy rahbar – DSc, professor **Sh.E. Islamov**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22640950>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 6-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 7-sentabr 2026-yil

Dolzarbligi. Hozirgi vaqtda inson organizmi turli xil kimyoviy omillarga duchor bo'lib, ular immunitet tizimiga bevosita ta'sir qiladi.

Tadqiqot maqsadi. Ento Defolning 1/20 dozasini surunkali ko'p martoba 90 kun davomida ta'sir qilishda kalamushlarning timus bezida morfologik o'zgarishlarini o'rganish.

Tadqiqot materiali va usullari. Eksperimental tadqiqot, og'irligi 150-200 g bo'lgan katta yoshli erkak jinsli 6 ta kalamushlarda o'tkazildi. Tadqiqot uchun quyidagi umumiy gistologik usullar qo'llaniladi: timusning umumiy tuzilishini o'rganish uchun bo'laklarni gematoksilin va eozin bilan bo'yash, biriktiruvchi va mushak to'qimalarining holatini baholash uchun Van Gizon usulidan foydalangan holda bo'yash va toluidin ko'ki usulini qo'llash.

Tadqiqot natijalari. Ento Defolni 1/20 LD50 dozasining ta'sirida timusni 90 kunlik muddatlardagi makroskopik o'zgarishlarning tavsifi. Timus old mediastinal soha to'sh suyagi ortida bo'lib, atrof to'qimalar bilan munosabatlari buzilmagan, bo'lakli tuzilishi sezilarli darajada involyusiyaga uchraganligi, simmetriyasining barqaror buzilishi va umumiy hajmning kamayganligi aniqlanadi. Konsistensiya xilma xil harakterda ayrim sohalarda parenxima zich, boshqa joylarda yumshoq va bo'shashgan uchastkalar aniqlanadi. Kapsula yupqa ayrim joylarda tarqoq shish va distrofik o'zgarishlar kuzatiladi. Organning rangi to'q qo'ng'ir qizg'ish tusga ega, nuqtasimon qon quyilishlar, giperemiya va kichik o'lchamli fibroz belgilarini kuzatish mumkin. Kesim yuzasida bo'lakli tuzilishi aksariyat bo'laklar kuzatilmaydi, parenximaning zichligi kamaygan.

Ento Defolni 1/20 LD50 dozasining ta'sirida timusni 90 kunlik muddatlardagi mikroskopik o'zgarishlarning tavsifi. Kapsula butunligini saqlangan, stromada kollagen va elastin tolalari notekis va nisbati turlicha taqsimlangan, ayrim uchastkalarda gipertrofik hamda degradasiyaga xos belgilar aniqlanadi. Bo'laklararo to'siqlar ko'plab sohalarda aniqlanmaydi yoki deformatlashgan ko'rinishda, po'stloq va mag'iz qavatlar orasidagi farq sezilarli darajada o'zgargan. Po'stloq qavatning miqdori kamaygan, limfoid hujayralar soni minimal darajaga, timositlarda apoptoz belgilari, yadro piknozi, xromatin kondensasiyasi, sitoplazma qisqarishi va yadro fragmentasiyasi. Mitozlar soni kamaygan, limfopoez pasaygan. Epitelioretikulositlar tarmoqsimon tuzilishini qisman saqlangan, distrofik o'zgarishlar va vakuolizasiya belgilari ustunligi aniqlanadi. Mag'iz qavatda timositlar soni kam, epitelioretikulositlar va makrofaglar ustun. Gassal tanachalarida konsentrik qatlamlar buzilgan va gialinoz belgilari bilan aniqlanadi. Makrofaglar soni oshgan, apoptotik hujayralarni fagositoz qilish jarayonlari jadallashgan. Qon tomirlar tizimida kapillyar va venulalar kengaygan, perivaskulyar shish va venoz to'laqlonlik belgilari barqaror saqlangan

Xulosa. Ento Defolni yuqori dozalarda (1/20 LD50) ta'sirida kollagen tolalarining nisbiy maydoni sezilarli oshgani, kortiko-medulliyar arxitekturaning buzilishi fonida stromal elementlar ustunligi kuchaygani qayd etildi. 90 kunlarda esa fibroz jarayonlar barqaror tus olib,

limfoid parenximaning atrofik reduksiyasi bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ldi. Bu doza ta'sirida semiz hujayralar reaksiyasi mo'tadil tusda kechdi: erta muddatlarda faollashuv kuzatilgan bo'lsa, keyingi davrlarda ularning soni barqarorlashdi va 90 kunlarda pasayish tendensiyasi namoyon bo'ldi.